


NAVOIY VILOYATININGTASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 376,3 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,4 %ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati, jahonning 59 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hisssasi Rossiya Federatsiyasida (19,3 %), Kanada (18,0 %), Xitoy Xalq Respublikasida (14,2 %), AQShda (7,6 %) va Turkiyada (6,6 %) qayd etilgan.



**NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	72,7	10,2	62,5	19,3
Kanada	67,7	65,2	2,5	18,0
Xitoy Xalq Respublikasi	53,4	32,1	21,3	14,2
AQSh	28,6	0,6	28,0	7,6
Turkiya	24,8	12,0	12,8	6,6
Litva	22,6	3,7	18,9	6,0
Qozog'iston	20,9	4,1	16,8	5,6
Yaponiya	12,2	-	12,2	3,2
Ukraina	11,6	0,7	10,9	3,1
Koreya Respublikasi	11,0	-	11,0	2,9

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Kanada, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Turkiya, Litva, Yaponiya, Ukraina va Koreya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.



NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Tashqi savdo aylanmasi	376,3	108,4	100,0
MDH davlatlari	115,9	124,3	30,8
Boshqa davlatlar	260,4	102,6	69,2



**NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA
TASHQI SAVDO AYLANMASI HAJMI
(2021- yil yanvar-aprel, ming AQSh dollari)**

Tuman va shahar nomi	Tashqi savdo aylanmasi hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	376 314,4	108,4
Navoiy sh.	242862,3	112,5
Zarafshon sh.	6383,6	3,3b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	85100,3	116,8
Konimex	588,5	51,3
Qiziltepa	6851,7	50,0
Navbahor	8264,6	52,4
Nurota	4590,5	73,2
Tomdi	3022,9	14,0b.
Uchquduq	2724,2	3,1b.
Xatirchi	13197,0	3,6b.
Bo'linmaydigan hajm	2728,8	-

2021- yil yanvar-apreloylaridatashqi savdo aylanmasi hajmi 376,3 mln. AQSh dollarini 2020- yilning mos davriga nisbatan 108,4% ni tashkil qilmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Kanada (62,7 mln.AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (10,8 mln. AQSh dollari), Afg'oniston(2,1 mln. AQSh dollari), Turkmaniston (1,4 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 16 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib

qolmoqda.



**NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Rossiya Federatsiyasi	52,8	47,1	72,7
Eksport	13,2	13,1	10,2
Import	39,6	34,0	62,5
Saldo	-26,4	-20,9	-52,3
Kanada	0,1	23,3	67,7
Eksport	-	23,3	65,2
Import	0,1	-	2,5
Saldo	-0,1	23,3	62,7
Xitoy Xalq Respublikasi	96,1	41,5	53,4
Eksport	23,5	2,1	32,1
Import	72,6	39,4	21,3
Saldo	-49,1	-37,3	10,8
AQSh	12,5	14,1	28,6
Eksport	-	-	0,6
Import	12,5	14,1	28,0
Saldo	-12,5	-14,1	-27,4
Turkiya	37,5	14,5	24,8
Eksport	4,4	7,8	12,0
Import	33,1	6,7	12,8
Saldo	-28,7	1,1	-0,8
Litva	5,5	34,8	22,6
Eksport	1,6	1,5	3,7
Import	3,9	33,3	18,9
Saldo	-2,3	-31,8	-15,2
Qozog'iston	19,9	21,2	20,9
Eksport	2,7	1,7	4,1

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Import	17,2	19,5	16,8
Saldo	-14,5	-17,8	-12,7

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Yaponiya	22,5	2,5	12,2
Eksport	3,9	0,2	-
Import	18,6	2,3	12,2
Saldo	-14,7	-2,1	-12,2
Ukraina	0,8	7,3	11,6
Eksport	0,5	0,9	0,7
Import	0,3	6,4	10,9
Saldo	0,2	-5,5	-10,2
Koreya Respublikasi	16,0	29,7	11,0
Eksport	-	-	-
Import	16,0	29,7	11,0
Saldo	-16,0	-29,7	-11,0
Chexiya Respublikasi	1,1	1,5	10,2
Eksport	0,7	0,1	0,1
Import	0,4	1,4	10,1
Saldo	0,3	-1,3	-10,0
Italiya	3,0	2,8	5,5
Eksport	-	-	-
Import	3,0	2,8	5,5
Saldo	-3,0	-2,8	-5,5
Belarus Respublikasi	72,9	0,5	5,4
Eksport	0,2	0,2	0,4
Import	72,7	0,3	5,0
Saldo	-72,5	-0,1	-4,6
Germaniya	11,9	4,0	3,9
Eksport	-	0,1	-

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Import	11,9	3,9	3,9
Saldo	-11,9	-3,8	-3,9


Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Turkmaniston	1,2	3,5	2,8
Eksport	1,1	3,3	2,1
Import	0,1	0,2	0,7
Saldo	1,0	3,1	1,4
Eron Islom Respublikasi	2,3	1,0	2,5
Eksport	1,6	-	0,1
Import	0,7	1,0	2,4
Saldo	0,9	-1,0	-2,3
Estoniya	0,8	1,9	2,5
Eksport	0,1	-	-
Import	0,7	1,9	2,5
Saldo	-0,6	-1,9	-2,5
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	0,7	0,4	2,3
Eksport	-	-	-
Import	0,7	0,4	2,3
Saldo	-0,7	-0,4	-2,3
Afg'oniston	0,4	0,2	2,1
Eksport	0,4	0,2	2,1
Import	-	-	-
Saldo	0,4	0,2	2,1
Qirg'iz Respublikasi	5,1	13,5	1,8

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Eksport	5,1	13,4	1,5
Import	-	0,1	0,3
Saldo	5,1	13,3	1,2

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-apreloylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 30,8 % ni tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH
MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING
HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-apreloylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 102,6 % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 69,2 % ni tashkil etdi.


NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-aprel)

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi 139,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 % ni tashkil etdi.

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (66,9 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (20,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,8 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 3,8 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 2,6 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,9 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 66,9 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 20,3 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 0,3 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 3,0 %
- Xizmatlar - 2,2 %



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln.AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln. AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln.AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	139,1	102,4	100,0	19,6	59,7	100,0	119,5	116,0	100,0


shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,3	161,3	3,8	2,8	104,2	14,3	2,5	4,3 b.	2,0
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	3,6	24,8	2,6	2,3	17,3	11,6	1,3	104,4	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	11,1b.	0,9	-	-	0,1	1,3	11,0b.	1,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	93,1	98,9	66,9	0,9	25,6	4,4	92,2	101,6	77,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	28,1	153,2	20,3	8,9	80,9	45,7	19,2	2,6 b.	16,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	0,4	49,7	0,3	0,1	3,7 b.	0,7	0,3	35,8	0,3
Turli xil tayyor buyumlar	4,3	185,9	3,0	4,2	2,0 b.	21,2	0,1	35,4	0,1
Xizmatlar	3,0	131,7	2,2	0,4	81,4	2,0	2,6	145,0	2,2

2021- yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, turli xil tayyor buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamdaxizmatlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-apreloylarida eksport hajmi 139,1 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar-aprel, % da)

XSST tarkibi	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,3	2,4	3,8
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	4,9	10,6	2,6

XSST tarkibi	2019-y.	2020-y.	2021-y.
--------------	---------	---------	---------

Tuman va shahar nomi	Eksport hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
----------------------	---------------	--

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar

1,0

0,1

0,9

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar

67,3

69,3

66,9

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari

12,3

13,5

20,3

Mashinalar va transport asbob-uskunolari

3,8

0,7

0,3

Turli xil tayyor buyumlar

0,4

1,7

3,0

Xizmatlar

3,0

1,7

2,2

2021- yil yanvar-apreloylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari ulushi 8,0 punktga oshib, 20,3 % ni, turli xil tayyor buyumlar 2,6 punktga oshib, 3,0 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR BO'YICHA EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-aprel, ming AQSh dollari)

Navoiy viloyati	139106,5	102,4
Navoiy sh.	102080,5	101,6
Zarafshon sh.	1 437,6	166,8
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	11915,3	148,9
Konimex	137,3	15,5
Qiziltepa	3 908,7	39,1
Navbahor	6006,0	60,6
Nurota	1 417,9	2,1 b.
Tomdi	293,6	141,9
Uchquduq	607,7	83,6
Xatirchi	10712,2	4,9 b.
Bo'linmaydigan hajm	589,7	-

2021- yil yanvar-aprel oylarida eksport hajmi 139,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 102,4% kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatano'zgarish sur'ati, % da	Jamiganisbatan ulushi,%
Eksport hajmi	139,1	102,4	100,0
MDH davlatlari	19,6	59,7	14,1
Boshqa davlatlar	119,5	116,0	85,9




MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 14,1 va 85,9% ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel, % da)



2021- yilning yanvar-apreloylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining 46,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (23,1 %), Turkiya (8,6 %), Rossiya Federatsiyasi (7,3 %), Qozog'iston (2,9 %), Litva(2,7 %) va Afg'oniston (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 93,0% ni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi bir pog'onaga tushishi hisobiga, Kanada eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni 29 tani tashkil etdi.



**NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-aprel)**

Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-apreliga nisbatan,% da	O'zni
	2020-y.	2021-y.		
Kanada	23 309,6	65187,5	2,8b.	1
Xitoy Xalq Respublikasi	2119,7	32138,8	15,2b.	2
Turkiya	7792,6	11 989,2	153,9	3
Rossiya Federatsiyasi	13089,8	10184,3	77,8	4
Qozog'iston	1 670,9	4075,7	2,4 b.	5
Litva	1 505,4	3716,5	2,5b.	6
Afg'oniston	175,4	2 131,5	12,2 b.	7
Turkmaniston	3321,6	2099,4	63,2	8
Singapur	521,0	1 727,2	3,3b.	9
Qirg'iz Respublikasi	13391,4	1 492,7	11,1	10
Ukraina	926,8	689,0	74,3	11
AQSh	35,8	651,1	18,2b.	12
BAA	135,5	603,4	4,5b.	13
Tojikiston	112,8	524,3	4,6b.	14
Belarus Respublikasi	174,5	446,9	2,6b.	15
Vetnam	-	175,1	-	16
Chexiya Respublikasi	72,8	128,2	176,1	17
Eron Islom Respublikasi	-	128,1	-	18
Hindiston	-	119,8	-	19
Pokiston	72,0	100,0	138,9	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.




NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ming AQSh dollari)

	Kanada		Xitoy Xalq Respublikasi		Turkiya		Rossiya Federatsiyasi	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Jami eksport	23 309,6	65187,5	2119,7	32 138,8	7792,6	11989,2	13089,8	10184,3
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	50,4	119,5	10,1	-	1 404,5	617,2
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	622,6	96,2	558,8	853,4	3 433,0	40,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	118,1	29,2	-	1149,8	-	16,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	23 093,5	64768,1	-	27 406,0	2 135,0	-	-	2,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	216,1	419,4	593,7	4 427,1	4141,3	8549,7	7464,1	6200,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	734,5	49,5	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	-	11,2	88,7	-	343,6	2 951,7
Xizmatlar	-	-	0,4	0,1	858,7	1436,3	444,6	356,2



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 3,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,2 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 131,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (80,6 %), safarlar (turizm xizmatlari) (12,5 %), moliyaviy xizmatlar (5,7 %), va boshqa xizmatlar (1,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-aprel, ming AQSh dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 2 535,2 ming AQSh dollar qiymatli 4 117,4 tonnadan ortiq meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2020- yilning mos davriga nisbatan 83,1 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 1,8% ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 1 066,1 ming AQSh dollarini, Karmana tumanida 538,9 ming AQSh dollarini, Xatirchi tumanida 426,7 ming AQSh dollarini, Zarafshon shahrida 256,3 ming AQSh dollarini va Navbahor tumanida 199,0 ming AQSh dollarini tashkil etmoqda.



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (69,0 %), Rossiya Federatsiyasi (9,5 %), Belarus Respublikasi (5,5 %) va Eron Islom Respublikasi (5,1 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI
(yanvar-aprel)

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi *, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Qozog'iston	507,7	296,7	9,7	3 204,0	1 750,4	69,0
Rossiya Federatsiyasi	2216,0	1 268,5	41,6	161,5	241,6	9,5
Belarus Respublikasi	310,0	174,0	5,7	400,0	138,4	5,5
Eron Islom Respublikasi	-	-	-	124,0	128,0	5,1
Xitoy Xalq Respublikasi	51,2	50,4	1,6	128,0	119,5	4,7
Pokiston	48,0	72,0	2,4	25,0	99,9	3,9
Afg'oniston	521,8	118,2	3,9	74,9	57,4	2,3
Qirg'iz Respublikasi	518,9	835,4	27,4	-	-	-
Iroq	235,2	181,2	5,9	-	-	-

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi *, % da	Tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi*, % da
Gruziya	42,0	46,1	1,5	-	-	-
Koreya Respublikasi	5,0	5,0	0,2	-	-	-
Moldova Respublikasi	7,5	3,5	0,1	-	-	-

*-qiymat ifodasida


NAVOIY VILOYATININGIMPORTI (2021- yil yanvar-aprel)

2021- yil yanvar-aprel oylarida import hajmi 237,2 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (53,7 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (15,0 %), turli xil tayyor buyumlar (12,8 %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 3,3 %
- Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari - 0,6 %
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar - 0,1 %
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar - 8,5 %
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari - 15,0 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari - 53,7 %
- Turli xil tayyor buyumlar - 12,8 %
- Xizmatlar - 6,0 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi 223,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 14,2 mln. AQSh dollariga yetdi.



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-aprel)

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	Mln.AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln.AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	Mln.AQSh dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da

Jami import	237,2	112,3	100,0	96,4	159,2	100,0	140,8	93,4	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7,8	6,0b.	3,3	6,9	7,2b.	7,1	0,9	2,7b.	0,6
Nooziq-ovqatxom-ashyo, yoqilg'iantashqari	1,6	154,4	0,6	0,8	4,0b.	0,8	0,8	98,7	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	50,3	0,1	0,1	78,2	0,1	0,1	35,3	0,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	20,1	70,1	8,5	5,1	99,8	5,3	15,0	63,6	10,6
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	35,6	106,2	15,0	29,8	141,1	30,9	5,8	46,7	4,1
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	127,3	99,1	53,7	24,7	96,9	25,6	102,6	99,6	72,9
Turli xil tayyor buyumlar	30,4	2,3 b.	12,8	27,2	4,5 b.	28,3	3,2	43,8	2,3
Xizmatlar	14,2	3,1b.	6,0	1,8	121,6	1,9	12,4	4,0b.	8,8


Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunolari (53,7 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (15,0 %), turli xil tayyor buyumlar (12,8 %), shuningdek MDH mamlakatlarida asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (30,9 %), turli xil tayyor buyumlar (28,3 %) ga to'g'ri keldi, boshqa xorijiy mamlakatlarga ham eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (72,9 %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (10,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan faqat

oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar(6,0 b. %), xizmatlar (3,1 b. %), turli xil tayyor buyumlar (2,3 b. %), oziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (54,4%), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari(6,2 %) o'sgan, ammo barcha import qilinadigan tovarlar 2020- yilning mos davriga nisbatan kamaydi.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



Navoiy viloyatida 2021- yil yanvar-aprel oylarida import hajmi 237,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, ulush, % da)

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 0,8 0,6 3,3

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Ichimliklar va tamaki	0,3	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,6	0,5	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	8,6	13,6	8,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	16,5	15,8	15,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	58,6	60,9	53,7
Turli xil tayyor buyumlar	13,2	6,3	12,8
Xizmatlar	1,3	2,2	6,0

2021- yil yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, turli xil tayyor buyumlarda 2020- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi 6,3 % dan 12,8 % gacha, xizmatlardaimportining ulushi 2,2 % dan 6,0 % gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda esa 0,6 % dan 3,3 % gacha o'sdi.



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLARI BO'YICHA IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-aprel, mingAQSh dollari)

Tuman va shahar nomi	Import hajmi	2020- yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	237207,9	112,3
Navoiy sh.	140781,8	122,0
Zarafshon sh.	4946,0	4,6 b.

<i>tumanlar:</i>		
Karmana	73185,0	112,8
Konimex	451,2	172,5
Qiziltepa	2943,0	79,3
Navbahor	2 258,6	38,4
Nurota	3 172,6	56,8
Tomdi	2 729,3	281,4b.
Uchquduq	2116,5	13,9b.
Xatirchi	2 484,8	162,8
Bo'linmaydigan hajm	2139,1	-

2021- yil yanvar-aprel oylarida import hajmi 237,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMI
(2021- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

	Jami	2020- yilning mos davriga nisbatano'zgarish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, %
Import hajmi	237,2	112,3	100,0
MDH davlatlari	96,4	159,2	40,6
Boshqa davlatlar	140,8	93,4	59,4

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich 40,6va 59,4% ni tashkil etdi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Litva, Qozog'iston, Turkiya va Yaponiya davlatlari) jami importning 72,7 % ini tashkil qiladi, bu 172,4 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel, % da)



Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi va Litvadan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Rossiya Federatsiyasiumumiy import hajmida 26,3 % ulushi bilan AQSh davlatini 11,8 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-aprel)**


Davlatlar	Ming AQSh dollari		2020- yilning yanvar-apreliga nisbatan, %da	O'rni
	2020-y.	2021-y.		
Rossiya Federatsiyasi	33955,5	62485,0	184,0	1
AQSh	14068,7	27985,4	198,9	2
Xitoy Xalq Respublikasi	39371,3	21253,7	54,0	3
Litva	33269,5	18871,6	56,7	4
Qozog'iston	19566,3	16850,4	86,1	5
Turkiya	6690,8	12792,0	191,2	6
Yaponiya	2368,8	12 188,6	5,1 b.	7
Koreya Respublikasi	29740,1	10977,0	36,9	8
Ukraina	6392,5	10913,0	170,7	9
Chexiya Respublikasi	1 461,2	10081,4	6,9b.	10
Italiya	2 795,9	5480,0	196,0	11
Belarus Respublikasi	293,0	4952,6	16,9 b.	12
Germaniya	3933,4	3869,6	98,4	13
Kanada	-	2559,1	-	14
Estoniya	1 950,0	2503,1	128,4	15
Eron Islom Respublikasi	1 018,8	2377,5	2,3b.	16
Buyuk Britaniya BQ va Shimoliy Irlandiya	411,7	2302,2	5,6b.	17
Fransiya	582,7	1 624,3	2,8b.	18
Belgiya	509,7	1170,0	2,3b.	19
Shvetsiya	-	914,8	-	20

2021- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha 51 ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

2021- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 14,2 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 6,0 % ini tashkil etdi va o'tgan yilningmos davriga nisbatan 3,1b. % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiyulushi qurilish xizmatlari (69,7 %) va transport xizmatlari (20,4 %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI
(2021-yanvar-aprel, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zaminyaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**

Tel.: (99879) 222-04-36